


"Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKda "Eng faol innovator ayol" ko'rik-tanlovi o'tkazildi

// 13 February 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qo-ng-irot-soda-zavodi-mchj-qkda-eng-faol-innovator-ayol-ko>



"Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKda faoliyat yuritayotgan iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatini yuzaga chiqarish, kimyo sanoati rivojiga xizmat qiladigan innovatsion taklif va tashabbuslarini o'rganish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida "Eng faol innovator ayol" ko'rik-tanlovi tashkil etildi.

Korxonada xodimlari tomonidan taklif etilgan loyihalar dolzarbligi, muhimligi va bugungi ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishi bilan ajralib turadi.



Barcha ishtirokchilar taqdimoti bilan tanishgan hakamlar hay'atining xulosalariga ko'ra:

1-o'rin Ishlab chiqarish texnik bo'limi innovatsiya sektori muhandisi Shirazova Gulsanem

2-o'rin Korxonada tez tibbiy yordam bo'limi feldsheri Tajimuratova Laura

3-o'rin ADKF sexi muhandis operatori Ibraimova Dilnozalar egalladi.

G'oliblar korxonada va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

"Qo'ng'iroq soda zavodi" MCHJ QK Matbuot xizmati